

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Shermuhammadov</b> Xalq ardog'idagi til - mangu barhayot.....	6
PEDAGOGIKA	
<b>T.Egamberdiyeva, O.Ashurova</b> Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning tahliliy omillari. ....	9
<b>U.Maqsudov, R.Rahmonova</b> Ommaviy axborot vositalari mediasavodxonlik kompetensiyalarini shakllantirish obyekti sifatida.....	12
<b>M.Suyunova</b> Pedagogik tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyatlari va uni tashkil etish tamoyillari.....	17
<b>N.Saidova, B.Abdullayeva</b> Bo'lajak boshlangich sinf o'qituvchilarining axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni modeli.....	20
<b>X.Tojiboyeva</b> O'smir yoshdagi o'quvchilarda gender o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	24
<b>A.Kalliyev</b> Ijodkor talabalar bilan ishlashda pedagoglik mahorati va usullar .....	27
<b>I.Usmonaliyev</b> Tarixiy tafakkur orqali bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash omillari usullarini pedagogik taxlili.....	32
FALSAFA, SIYOSAT	
<b>A.Yuldashov</b> O'zbekistonda intellektual mulk huquqi muhofazasini ta'minlashda ta'limning ahamiyati.....	37
<b>Q.Aliqulov</b> Innovatsion va transformatsion o'zgarishlarning yoshlar iqtisodiy faolligiga ta'siri .....	41
TARIH	
<b>X.Boymirzayev, Z.Jobborov</b> Sovet hukumatida 20-30 yillarda amalga oshirilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tarixidan.....	46
<b>X.Mamajonov</b> Amir Temur davlati va oltin o'rda o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi va diplomatik aloqalarning boshlanishi.....	49
<b>A.Aloxunov, A.Mamasiddiqov</b> Farg'ona vodiysidagi dalvarzin yodgorligining mudofaa tizimi xususida .....	53
<b>A.Abduxalimov</b> Vodiy viloyatlari qishloq aholisining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinishi .....	57
<b>I.Yusupov</b> O'zbekistonda hududiy telekanallarning tashkil etilishi va rivojlanish tarixi .....	62
<b>I.Turdiyev</b> Jizzax vohasi aholisining oila va nikoh bilan bog'liq an'analari va Marosimlari .....	67
<b>Liang Yun, Xi Tongyuan, Ra'nogul Yusuf, N.Kambarov</b> O'zbekistonning Samarqand shaxridagi Sazagan yodgorligining M11 qabrida olib borilgan qazuv tadqiqotining hisoboti .....	70
ADABIYOTSHUNOSLIK	
<b>L.Axmadaliyev</b> Po'latjon Qayyumiy zamondoshlari xotirasida .....	85

## FARG'ONA VODIYSIDAGI DALVARZIN YODGORLIGINING MUDOFAA TIZIMI XUSUSIDA

К ВОПРОСУ ОБОРОНИТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ПАМЯТНИКА ДАЛЬВАРЗИН В  
ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИON THE ISSUE OF THE DEFENSIVE SYSTEM OF THE DALVARZIN MONUMENT IN THE  
FERGANA REGION

Alisher Ahmadjonovich Aloxunov, Mamasiddiqov Azizjon A'zamjon o'g'li

Alisher Ahmadjonovich Aloxunov

– Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, Jahon tarixi kafedrasida katta o'qituvchisi.

Mamasiddiqov Azizjon A'zamjon o'g'li

– FarDU Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) mutaxassisligi bo'yicha 1-bosqich magistranti.

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada qadimgi Farg'ona mudofaa inshootlarining O'rta Osiyo urbanizatsiya jarayoni rivojlanishidagi o'rni, ularning xususiyatlari, ko'rinishlari, tarixiy holatlari Chust madaniyatiga tegishli bo'lgan so'nggi bronza va ilk temir davriga oid to'liq shakllangan shahar – Dalvarzintepa yodgorligining mudofaa tizimi misolida yoritilgan.

**Аннотация**

В статье освещена роль оборонительных сооружений древней Ферганы в развитии урбанизационных процессов Средней Азии, их особенности и историческое положение на примере оборонительной системы Дальварзинского памятника Чустской культуры, являющегося полноценным городом эпохи поздней бронзы и раннего железа.

**Abstract**

The article highlights the role of the defensive structures of ancient Fergana in the development of urbanization processes in Central Asia, their features and historical position on the example of the defensive system of the Dalvarzin monument of the Chust culture, which is a full-fledged city of the Late Bronze Age and Early Iron Age.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona vodiysi, jez va ilk temir davri, sug'orma dehqonchilik, makonlar va manzilgohlar, mudofaa inshootlari, shahar xarobasi, Dalvarzin I, II, III.

**Ключевые слова:** Ферганская долина, эпоха бронзы, железный век, орошаемое земледелие, стоянки, оборонительные сооружения, городище, Дальварзин I, II, III.

**Key words:** Ferghana Valley, Bronze Age, Iron Age, irrigated agriculture, monument, fortifications, ancient settlement, Dalvarzin I, II, III.

**KIRISH** O'rta Osiyo xalqlari ajdodlarining ilk davlatchiligi ancha qadim ildizlarda ega. Milliy davlatchiligimiz shakllangan bronza davriga oid birorta yozma ma'lumotlar yo'q. O'zbekistonning bu davrga oid tarixi faqatgina arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida yoritilib, ular jamiyat taraqqiyotidagi barcha murakkab jarayonlarni qisman ochib beradi.

Dastlabki davlatlar alohida makonlar yoki ilk shaharlar hamda ishlov beriladigan yerlar va sug'orish tizimi maydoni bilan chegaralangan nisbatan kichik hududda, ya'ni zich o'zlashtirilgan, xo'jalik va ishlab chiqarish maqsadida keng foydalaniladigan qadimgi sug'orma dehqonchilik vohalarida paydo bo'lgan. Bunday vohalar aholisi uchun tashqi harbiy bosqinlardan himoyalani, makonlar va manzilgohlar hududini mudofaa qilish, sug'orish va dehqonchilik ishlarini tashkil etish, jamoaning ichki va tashqi aloqalarini boshqarib turish masalalarini yechish muhim va hayotiy zaruriyat edi.

Qadimgi manzilgohlarni, shaharlarni ihota qilgan mudofaa inshootlarining rivojlanishi va ularning xususiyati ijtimoiy rivojlanish darajasining muhim ko'rsatkichi bo'lib, qadimgi shahar sivilizatsiyalarining dolzarb muammolari qatoridan o'rin oladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Markaziy Osiyo hududida mudofaa inshootlarining yuzaga kelishi va barpo etilishi bir tekis ketmagani ma'lum. Chunonchi, Janubiy Turkmanistondagi manzilgohlar atrofidagi dastlabki mudofaa devorlari eneolit davrida ko'tarilgan (Geoksyur manzilgohlari) va jez davrida ularni qurish avj olgan (Oltintepa)[13:6-7].

Qadimgi O'zbekistonda qal'a inshootlarining keyingi rivojlanishi Chust madaniyati yodgorliklarida (mil. avv. XII–VIII asrlar) qayd etilgan. Ularni tadqiq qilish va qiyosiy tahlil qilish «Farg'onada mudofaa inshootlarining ilk bosqichi o'ziga xos bo'lganligini» ko'rsatadi[6].

Farg'ona vodiysi mudofaa qurilmalari jez davri[12] va ilk temir davri yodgorliklaridan iborat. Bular, jumladan, Eylaton, Sho'rabashot, Mingtepa va boshqalardir[3:109-110; 8:78-79]. Bu kabi qurilmalar Chust vodiysida ham borligi ma'lum[5]. Chust madaniyatiga oid arxeologik manbalar asosida Farg'ona hududida nafaqat ilk shahar madaniyatining shakllanishi to'g'risida ma'lumotlar olindi, balki sinfiy munosabatlarning o'rnatilishi va shu asosda qadimgi Farg'ona hududida ilk davlatlar tarixini o'rganish ham boshlandi. Chust madaniyatiga doir Dalvarzintepa yodgorligi vodiya so'nggi bronza va ilk temir davriga oid to'liq shakllangan shahar edi[2:23].

**NATIJALAR (Результаты/Results).** Dalvarzin shahar xarobasi – nafaqat Farg'ona vodiysi, balki O'rta Osiyodagi so'nggi bronza va ilk temir davri yodgorliklari ichida eng kattasi, ayni paytda, eng muhimi hisoblanadi. Yodgorlik Andijon viloyati Jalolquduq tumani Oyim qishlog'idan 2 km sharqda Dalvarzin mahallasining quyi qismida joylashgan. Maydoni 25 ga, madaniy qatlami qalinligi 4 metrga yetadi. Dalvarzinda 1952-yildan boshlab 16ta dala mavsumi mobaynida Sankt-Peterburglik arxeolog Yu.A.Zadneprovskiy qazishma ishlarini olib borgan. Tekshirish ishlari asosan yodgorlikning markaziy qismida va sharqiy mudofaa devori tomonlarida amalga oshirilgan edi. Tadqiqotlar natijasida Dalvarzinning uch qismdan iborat ekanligi va har biri alohida mudofaa devorlari bilan o'rab olingani aniqlangan. Ya'ni, shahar xarobasi uch tarkibiy qisimli va ular Dalvarzin I, II, III deb nomlangan.

2003–2005, 2018–2019-yillari Dalvarzindagi arxeologik ishlar qayta tiklandi va qamrovli ilmiy qidiruv ishlari amalga oshirildi. Bu yerda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining alohida guruhi qazishma ishlarini o'tkazdi[9:101-108; 10:131-141; 11:143-152].

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan arxeologik tadqiqot ishlari avvalgilaridan farq qiladi, albatta. Bu farq yodgorliklarning har tomonlama va chuqur o'rganilishi hamda zamonaviy usullardan keng foydalanishda kuzatiladi. Shuningdek, bugungi kunga kelib tabiiy fanlar hamda Yevropa va Osiyo arxeologlari yutuqlaridan keng foydalanish uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi[7:25].

Dalvarzin mudofaa inshootlari yaxshi o'rganilgan. Shaharning ikkita tashqi va bitta ichki mudofaa devorlari aniqlangan va ular shaharni uch qismga bo'lib turadi. Yu.A.Zadneprovskiy bergan ma'lumotlarga asosan devorlar qurilishida quyidagi usullar qo'llanilgan:

1. G'ishtdan terilgan.
2. Paxsa bloklaridan tiklangan.
3. Ikki tomoni g'ishtdan "g'ilof" qilinib, o'rtasi to'ldirilgan[5:3-13]. Qurilish materiali sifatida guvalalardan foydalanilgani qayd etildi[4:257]. Quyida har bir mudofaa devorini alohida ko'rib chiqamiz.

Dalvarzin I – 18 gektarlik maydonni egallagan va tuproq marzalaridan (tuproq uyumi yoki ko'tarma devor) bunyod etilgan devor bilan o'rab olingan. Devorning uch joyidan ko'ndalangiga qirqib ko'rilganda, mudofaa inshootlari madaniy qatlamlar ustiga qurilgan tagkursida (platforma) tiklanganligi aniqlandi. Tagkursi ustiga ikki tomoniga g'ishtlardan "g'ilof" qilinib, ichiga tosh (eni 60 sm), g'isht parchalari va loy bilan to'ldirilib, salobatli devor qurilgan. Devor qalinligi 4–6 m, balandligi 2,5 m. Ushbu devorning yana bir bo'lagi boshqacharoq tarzda qurilgan. Bu devor madaniy qatlamlar ustiga paxsa bloklari (o'lchamlari 50X50, 40X30 sm) yordamida bunyod etilgan. Devor qalinligi o'rtacha 4 m, balandligi 1,25 m. Ushbu devorga parallel etilib, undan 2 metr uzoqlikda ikkinchi devor 1,2 m. qalinlikda tiklangan. Bu devor birinchi devorni mustahkamlash uchun qurilgani aniq. Har ikki devor orasi tuproq, g'isht, kesak va boshqalar bilan to'ldirilgan va bu devorning umumiy qalinligi 8 metrni tashkil etgan.

Sharqiy qism yoki Dalvarzin II da 5 gektar maydon mudofaa devori bilan himoyalangan. Ammo bu devor yaxshi saqlanmagan, u ham birinchi devor kabi quyi madaniy qatlam ustiga qurilgan. Qalinligi 4 metr va saqlangan balandligi 1 metr.

Dalvarzin III yoki ark – shimoli-g'arbiy bo'lakni (maydoni 2,2 ga) uchinchi mudofaa devori himoya etib turgan. Bu devor 60-80 smli madaniy qatlam ustida qora va ko'kish rangli devg'ishtlardan qurilgan. Devor qalinligi 2,5 metr va saqlangan balandligi 2,6 metr.

## TARIX

**МУНОКАМА (Обсуждение/Discussion).** Qazishmalar mudofaa devorlari yodgorlik tarixida quyidagi rivojlanish bosqichlarini bosib o'tganligini ko'rsatmoqda:

I bosqich,: shaharning mudofaa devorlari qurilgunga qadar davri va eng quyi madaniy qatlamlarning 50–80 sm qalinlikda to'planishi;

II bosqich,: mudofaa devorlarining qurilishi, ulardan faol foydalanish va ta'mirlash davri va bu oraliqda 2,5–4 metr qalinlikda madaniy qatlamlar yig'iladi;

III bosqich,: mudofaa devorlarining buzilib ketishi va yodgorlikda hayotni to'xtashi hamda uning tashlandiq holga kelib qolishi. Bunga eng yuqori qismdagi qalinligi 60 sm.gacha bo'lgan madaniy qatlamlar kiradi. Qazishma mualliflari fikricha, mudofaa devorlarini bunday davrlashtirish shahar qurilish bosqichlariga zid kelmaydi[4:19; 5:10].

**XULOSA (Заключение/Conclusion).** Ushbu arxeologik ishlar natijasida ulkan material to'plandi va bu qadimgi Markaziy Osiyo harbiy istehkomlari tarixining bir qator muhim va ilgari butkul o'rganilmagan masalalari yechimini belgilab olish imkonini berdi.

Chust madaniyati mudofaa devori tarh nuqtayi nazaridan shakllanishida janubiy Turkmanistondagi Oltintepa va Namozgoh IV madaniyati bosib o'tgan jarayonni kechirdi[1:135.]. Shunday qilib, so'nggi jez va ilk temir davrida O'rta Osiyoda mudofaa inshootlari keyingi davrlarda har tomonlama rivojlangan mudofaa inshootlari yuzaga kelishi uchun qulay sharoit yaratgan muayyan evolyutsiya yo'lini bosib o'tdi.

Xulosa sifatida shuni qayd etish zarurki, qadimgi Farg'ona mudofaa inshootlari O'rta Osiyodagi urbanizatsiya jarayoni rivojlanishining so'nggi nuqtasi bo'lgan emas. Keyinchalik ilk o'rta asrlar va o'rta asrlar feodal mudofaa inshootlari yuzaga keldi. Shu bilan birga, ilk o'rta asrlar hamda o'rta asrlar harbiy istehkomlari yanada qadimgiroq davrlarning ko'p elementlarini o'zida saqlab kelmoqda. Ushbu vorisiylikni aniqlash tadqiqotchilarning muhim vazifasidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев Б.М. Некоторые итоги изучения древней фортификация Ферганы (возникновения и этапы развития). //История Узбекистана в археологических и письменных источниках. – Т.: «Фан», 2005. (Abdullayev B.M. Some results of the study of the ancient fortification of Fergana (the emergence and stages of development). //History of Uzbekistan in archaeological and written sources. – Т.: “Fan”, 2005).
2. Алохунов А.А. Фарғона водийсининг бронза ва илк темир даври тарихи (маданий, ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий муносабатлар муаммолари). Фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. – Андижон, 2020. (Alokhunov A.A. History of the Bronze and Early Iron Age of the Fergana Valley (problems of cultural, socio-economic and political relations). Doctor of Philosophy (PhD) thesis abstract. – Andijan, 2020.)
3. Горбунова Н.Г. Поселение Ферганы первых веков нашей эры (некоторые итоги исследования). //СА. № 3. – М.: «Наука», 1977. (Gorbunova N.G. Settlement of Fergana in the first centuries of our era (some results of the study). //SA. No. 3. – М.: «Наука», 1977).
4. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы. Москва –Ленинград (МИА, №118). 1962. (Zadneprovsky Yu.A. Ancient agricultural culture of Ferghana. Moscow – Leningrad (MIA, No. 118). 1962).
5. Заднепровский Ю.А. Укрепления Чустских поселений и их место в истории первобытной фортификации Средней Азии. // КСИА. Вып. 147. – М.: «Наука», 1976. (Zadneprovsky Yu.A. Fortifications of the Chust settlements and their place in the history of the primitive fortification of Central Asia. // KSIA. Vsh. 147. – М.: «Наука», 1976).
6. Заднепровский Ю.А. Развитие фортификации в Фергане (I тыс. до н.э. – сер. I тыс. н.э.). //Фортификация в древности и средневековье. – СПб., 1995. (Zadneprovsky Yu.A. Development of fortification in Ferghana (I millennium BC – middle of the 1st millennium AD). //Fortification in antiquity and the Middle Ages. - St. Petersburg, 1995).
7. Исомиддинов М., Алохунов А. Фарғона водийси бронза ва темир даврида. – Фарғона: “Classik”, 2021. – 184 б. (Isomiddinov M., Alokhunov A. The Fergana Valley in the Bronze and Iron Ages. – Fergana: «Classic», 2021. – 184 p.)
8. Матбабаев Б.Х. К вопросу изучения укреплений городских центров Ферганы (сер. I тыс. до н.э. – сер. I тыс. н.э.). //Генезис и пути развития процессов урбанизации Центральной Азии. ТДМК. – Самарканд: «Фан», 1995. (Matbabayev B.Kh. On the issue of studying the fortifications of the urban centers of Ferghana (mid. I millennium BC – mid. I millennium AD). //Genesis and ways of development of urbanization processes in Central Asia. TDMK. – Samarkand: «Fan», 1995).
9. Матбабаев Б.Х., Иванов Г.П. Новое о типах жилищ на поселениях Чустской культуры в связи с раскопками городища Дальварзина // Археологические исследования в Узбекистане. 2003 год. – Ташкент, 2004. – Вып. 4. (Matbabayev B.Kh., Ivanov G.P. New about the types of dwellings in the settlements of the Chust culture in connection with the excavations of the settlement of Dalvarzina // Archaeological research in Uzbekistan. 2003 - Tashkent, 2004. Issue. 4.).
10. Матбабаев Б.Х., Пардаев М.Х., Абдуллаев Б.М. Новое об оборонительных стенах городища Дальверзин (Чустская культура). //История Узбекистана в археологических и письменных источниках. – Т.: «Фан», 2005.

(Matbabayev B.Kh., Pardaev M.Kh., Abdullayev B.M. New about the defensive walls of the ancient settlement Dalverzin (Chust culture). // History of Uzbekistan in archaeological and written sources. – T.: “Fan”, 2005).

11. Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М., Юлдашев Б. Исследование памятников Ферганы эпохи поздней бронзы (городища Дальверзин, Ашкалтепа) // Археологические исследования в Узбекистане 2004 – 2005 годы. – Ташкент, 2006. – Вып. 5. (Matbabayev B.Kh., Abdullayev B.M., Yuldashev B. Study of the monuments of Ferghana of the Late Bronze Age (fortifications Dalverzin, Ashkaltepa) // Archaeological research in Uzbekistan 2004-2005. – Tashkent, 2006. Issue. 5.).

12. Спришевский В.И. Оборонительные сооружения эпохи бронзы на территории Узбекистана // Советская Археология. №3. Москва, 1972. (Sprishevsky V.I. Defensive structures of the Bronze Age on the territory of Uzbekistan // Soviet Archeology. Number 3. Moscow, 1972).

13. Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари (мил. авв. VI асрдан мил. IV асргача). – Т.: O'zbekiston, 2007. (Khodzhaniazov G. Ancient Khorezm defense structures (from the 6th century BC to the 4th century BC). – T.: Uzbekistan, 2007. – 216 p.).

(Taqrizchi: M.Isomiddinov - tarix fanlari doktori, professor)